

OMONIMLAR VA ULARNING MAKTAB DARSLIKLARIDAGI O'RNI

Saydullayeva Bahora Fozil qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 3- bosqich talabasi . Telefon raqami :+998330764937

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi omonimlarning lingvistik xususiyatlari va ularning darsliklarda qanday aks ettirilgani tahlil qilinadi. Bundan tashqari 5-sinf ona tili darsligi asosida omonimlar bilan bog'liq mavzular, mashq va topshiriqlar o'rganilib, ularning ta'limiyligi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, darsliklardagi yondashuvning afzallik va kamchiliklari ko'rib chiqilib, omonimlarni o'rgatish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: omonim, omonimlarni yuzaga kelish sabablari, leksik birliklar, matn, ko'p ma'noli so'zlar, topshiriq, so'z ma'nolari.

Til inson tafakkuri , his -tuyg'ulari , bilim va tajribasining asosiy ifoda vositasi sanaladi. Har bir millatning madaniyati va ma'naviy olami , eng avvalo, uning tilida namoyon bo'ladi. Shu sababli tilda mavjud bo'lgan so'z boyligi, leksik qatlamlarning xilma – xilligi til taraqqiyotining, xalq tafakkurining darajasini ko'rsatuvchi muhim mezonlardan biridir. O'zbek tili leksikasida alohida o'rinni tutadigan birliklardan biri bu-omonimlardir. Omonimlar shaklan bir xil, lekin ma'nosi jihatdan farq qiluvchi so'zlar bo'lib, ular tilda ko'p ma'nolilik , mazmun qatlamlari , stilistik boylikni yaratadi. Tildagi ayrim so'zlar shakily jihatidan , ayrimlari ma'no jiharidan , bir xillari esa talaffuz jihatidan o'xshash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari esa bir- biriga esa qarama – qarshi bo'ladi.

Omonimlar (grekcha omos-bir xil, onomo yoki onumo-onom degani) -talaffuzi va yozilishi bir xil , ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: yuz(ot)-yuz(son), tut(daraxt)-tut(harakat). Omonimlar bir xil so'z turkumiga ham, har xil so'z turkumiga oid bo'lishi ham: ot- ism, ot-hayvon. Shundan ko'rinib turibdiki, bu omonimlik bir xil so'z turkumiga oid. Bir turkum doirasidagi omonimlar qo'shimchalar qabul qilganda ham omonimligini saqlab qolaveradi. [Palvonnazarova Hayotxon Omonimlarning o'ziga xos

xususiyatlari.Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali- Nukus davlat pedagogika instituti-2024.1-bet O'zbek tilida omonimlar ikkitadan tortib oltitagacha bo'lishi mumkin.Tilda omonimlar quyidagi yo'llar bilan yuzaga keladi:

1.Tilda azaldan mavjud bo'lgan so'zlarning ayrim shakllari tasodifan teng kelib qoladi.Masalan:ot ,yoz,yot shim,qo'y, osh, ter kabilar.

2.Bir ma'noli so'z ma'no ko'chish oqibatida ko'p ma'noli so'zga aylanadi, keyinroq, ma'nolar o'rtasidagi bog'lanish unutilib bir so'z negizida ikkita leksema paydo bo'ladi. Kun (quyosh) – kun(sutka),kengash , sovuq ,issiq , doira, va boshqalar.

3.Boshqa tildan o'zlashtirilgan so'zlar o'zaro shaklan teng bo'lib qoladi.Bsohqa tildan kirgan so'va o'z qatlamga oid so'z bog' (mevazor ,tojikcha)- bog' (tugun , o'zbekcha), sham'a (imo – ishora, arabcha)- sham'a (choy qoldig'i ,o'zbekcha),avra (kiyimning yuza tomoni, tojikcha)- avra (bosh ko'zini aylantirib, o'z so'zini o'tkazmoq, o'zbekcha)

4.So'z yasalishi natijasida omonimlar hosil bo'ladi:otliq (ot mingan suvori) -otliq (ismli, nomli), romchi (rom yasovchi) -rom (folbin),qirq (son)- qirq (marosim nomi)va boshqalar.Omonimlar badiiy adabiyotda ,og'zaki nutqda , ayniqsa, askiyada so'z o'yini ,qochiriq ma'nolarini ifodalash uchun keng qo'llaniladi.Shuningdek, o'zbek adabiyotida omonim so'zlar qofiyasiga asoslangan tuyuq janri ham mavjud.[Qosimova Sitora. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida omonim, antonim, sinonim, paronimlarning o'qitish metodikasi.Termiz davlat universiteti.Termiz-2024]

Tilshunoslikda omonimlar masalasi ko'p yillardan beri o'rganib kelinmoqda.Ularning lug'aviy ma'nosi , grammatik , boshqa vazifalari, ko'p ma'noli birliklar – ayniqsa ,sinonim va polisemiya bilan farqlari ilmiy izlanishlar markazida turibdi.Ammo bu soha faqat nazariy emas , balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyatga ega.Ayniqsa, umumta'lim mакtablarida til o'qitish jarayonida omonimlar bilan ishlash, ularni o'rgatish va tushuntirish o'quvchilarning til tafakkurini , mantiqiy fikrlashini ,so'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Ona tili darsliklarida o'quvchilarning leksik birliklar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishda omonimlar alohida mavzu sifatida hamda uni mustahkamlash uchun mashq va toshiriqlar tarkibida uchraydi.Xususan, hozirda amalda bo'lgan 5 -sinf ona tili darsligidagi

omonimlar mavzusiga to‘xtalamiz. 5- sinf ona tili darsligida “Omonimlar.Nutqda omonimlardan foydalanish mavzusi orqali berilgan.Bunda dastlab qoidaga olib kiruvchi sifatida topshiriq berilgan.Topshiriq quyidagicha:Rasmdagi bolalar o‘rnida bo‘lishni xohlaysizmi?Og‘zaki matn tuzib,o‘rtoqlaringiz bilan fikrlashing.Koinotni qanday tasavvur qilasiz?U haqida gapirib bering.Tuzgan gaplaringizda *yosh ,dam , ,soz , uch ,so‘z*laridan foydalaning.Bu so‘zlar yana anday ma’no bildirishini toping.Bu topshiriq orqali o‘quvchilar tafakkur qilish va fikrlash qobiliyatini oshirish hamda omonim so‘zlarning bir nechtaa ma’nolarini farqlashni o‘rganadi.Topshiriqdan so‘ng omonimlar tushunchasi nima ekanligi hamda omonimlar bilan ko‘p ma’noli so‘zlarni farqlash qoida sifatida berilgan.Qoidadan so‘ng mavzuni musathkamlovchi topshiriqlar berilgan.

267- mashqda o‘quvchilarga bir xil shakldagi , lekin turli ma’noli so‘zlar bilan gap tuzish topshiriladi. Bu mashq leksik omonimlarni ajratish va kontekst asosida farqlashga qaratilgan. O‘quvchi bir xil ko‘rinishdagi so‘zning ikki xil ma’noda ishlatilishini tushunadi. Bu esa tahliliy fikrlashni kuchaytiradi. Biroq mashqdagagi so‘zlar ro‘yxati (masalan: “soz”, “qil”, “ter”, “chakka”) murakkablik darajasiga ega, shuning uchun ustozlar tomonidan izohli tushuntirish talab etiladi.

268- mashqda she’riy parcha ustida ishlash va “dami” so‘zidagi ma’nolarni aniqlash kerak. Bu mashq badiiy kontekstda omonim so‘zning ma’nosini aniqlashga yordam beradi. O‘quvchi she’r satridan kontekstni tahlil qiladi, obrazli tafakkur va ma’no ajratish ko‘nikmasini mustahkamlaydi. She’rli uslub bu yerda stilistik jihatlarni ham o‘rganishga xizmat qiladi.

269-mashq. Rasm asosida omonimni aniqlash.Ikki rasm: qizlar raqsga tushmoqda va tomdan muz tushmoqda. Ularni bog‘lovchi so‘z — raqs emas, ehtimol tushmoq yoki muz so‘zları bo‘lishi mumkin (ushbu aniqlik ustoz tomonidan berilishi kerak).Rasm asosida so‘z topish orqali o‘quvchilarning vizual tafakkuri va so‘z boyligini faollashtirish maqsad qilingan. Omonimni matndan topish va unga asosli izoh berish — bu mustaqil fikrlashga undaydi. Shu bilan birga, bu mashqda bir oz chalkashlik bo‘lishi mumkin, chunki rasm orqali bog‘lovchi omonim aniq ko‘rinmasligi ehtimoli bor.

270-mashq. Matndan omonimlarni ajratib ko‘chirish.Berilgan gaplardan shakldosh (omonim) so‘zlarni aniqlab, ularni izohlash vazifasi qo‘yilgan.Bu mashq o‘quvchidan analitik fikrlashni, ya’ni matn ichidan kerakli til birliklarini ajratib olishni talab qiladi. Ular asar, yozgan, ot, temir kabi so‘zlarni aniqlab, ularning har birining ma’nolarini tushuntirishga harakat qiladi. Bu bosqichda ustoz rahbarligida ishlash samaradorlikni oshiradi.

271-mashq. Raqamli omonimlar bilan ishlash.Raqamlar (3, 40, 100) bilan bog‘liq so‘zlarni rasmlardan topib, gaplar tuzish.Bu yerda raqamlar asosida turli ma’noli birikmalar tahlil qilinadi.Uch – raqam sifatida yoki uchmoq fe’li sifatida, qirqmoq – son yoki harakat, yuz – son yoki tana a’zosi.Bu mashq inson faoliyatidagi turli kontekstlarda bir so‘zning turlicha ishlatilishini anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, bu topshiriqda vizual materiallar asosida fikrlash ko‘nikmasi shakllanadi.

5-sinf darsligidagi bu mashqlar:Omonimlarni ko‘rgazmali (rasm, she’r, matn) asosda o‘rgatishga qaratilgan.Leksik va uslubiy tahlilga yo‘naltirilgan.O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.Ammo ayrim mashqlar (269-mashq) tushunishda murakkablik tug‘dirishi mumkin, ularni ustoz ko‘magida bajarish lozim. [Umumiy o‘rta ta’lim muktabalarining 5-sinf uchun darslik.N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopova,T.2020]

Men bu topshiriqlarga qo‘sishimcha sifatida omonimlar mavzusini o‘qitishga quyida bir nechta topshiriqlarni tavsiya etmoqchiman.

1-topshiriq.Rasm asosida omonim top.Ushbu topshiriqda o‘quvchilarga ikki xil rasm beriladi.Ular rasm asosida umumiy omonim so‘zni topadilar.Masalan:1- rasm:shifokor bemor barmog‘ini bog‘lamoqda,2-rasm:Daryo sohilidagi bog‘. Bu yerda umumiy omonim so‘z bog‘(qo‘lni bog‘lash /daraxtzor joy).

2-topshiriq.”O‘xshatib top!” o‘yini (Topishmoqli topshiriq).Bu topshiriqda o‘quvchilar quyidagi topshimoqlarning javobini topish orqali omonimni aniqlaydi.Masalan:chopsa chopilmas, ko‘msa ko‘milmas (soya – biror narsaning aksi /o‘simlik),Qirq ko‘ylagi bor bir tugmasi yoq (karam-sabzavot/saxovat)kabi topishmoqlarni misol qilsak bo‘ladi.

Bu topshiriqlar o‘quvchilarni yanada mavzuga qiziqishini va diqqatini oshiradi.Darsdsa tez zerikib qolish holatlarini oldini oladi.

Yuqoridagi fikrlarimni xulosalar ekanman, omonimlar — ona tilining semantik boyligini ko‘rsatuvchi muhim til birliklaridan biridir. Ularning mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish va nutqni aniqlashtirishdagi o‘rni beqiyosdir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 5-sinf “Ona tili” darsligida omonimlar mavzusi mazmunan tushunarli, o‘quvchining yoshi va bilish darajasiga mos shaklda yoritilgan. Mavzu doirasida berilgan mashq va topshiriqlar o‘quvchilarni omonimlarni anglash, ma’no farqini tushunish hamda ular bilan to‘g‘ri ishlashga yo‘naltiradi.Ushbu maqolada taklif etilgan qo‘srimcha topshiriqlar, ayniqsa, topishmoqlar orqali o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rag‘batlantirish, tilga qiziqishni kuchaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, omonimlarni o‘rgatish nafaqat tilshunoslik nazariyasi, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, uni umumta’lim darsliklari asosida puxta o‘zlashtirish o‘quvchilarning nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Qosimova Sitora. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida omonim, antonim, sinonim, paronimlarning o‘qitish metodikasi.Termiz davlat universiteti.Termiz-2024
2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik.N.Mahmudov ,A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopova,T.2020
3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik.N.Mahmudov ,A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopova,T.2020
4. Rahmatullayev Sh O‘zbek tili omonimlarning izohli lug‘ati
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent-2005